



Xadicha YODGOROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
E-mail: yodgorov@navoiy-uni.uz
Mahmadiyor ASADOV,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) O.Gulyamova taqrisi asosida

O'ZBEK TILIDAGI INSON XARAKTERIDAGI SIFAT VA HOLATNI BILDIRUVCHI IBORALAR HAMDA ULARNING INGLIZ TILIGA TARJIMASI

Аннотация

Ushbu maqola o'zbek tilidagi inson xarakterini va holatini aks ettiruvchi iboralarning mazmunini, ularning ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni va ularni ilmiy asoslangan usullar orqali hal qilishni o'rganishga bag'ishlangan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida keltirilgan inson xislatlarini aks ettiruvchi iboralar tanlanib, ularning turli tarjimalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil jarayonida turli tarjima nazariyalari, jumladan, dinamik ekvivalentlik va madaniy adaptatsiya yondoshuvlari asosida iboralarning ma'naviy mazmuni, hissiy ta'siri va madaniy kontekstini saqlab qolishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, "O'tkan kunlar", inson xarakterini ifodalovchi iboralar, ingliz tiliga tarjima, dinamik ekvivalentlik, madaniy adaptatsiya, frazeologiya, qiyosiy tahlil.

ФРАЗЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ КАЧЕСТВО И СОСТОЯНИЕ ХАРАКТЕРА ЧЕЛОВЕКА НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ, И ИХ ПЕРЕВОД НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

Данная статья посвящена изучению содержания выражений, отражающих характер и состояние человека в узбекском языке, проблем их перевода на английский язык и решения этих проблем с использованием научно обоснованных методов. На основе анализа произведения Абдуллы Кадыри "Минувшие дни" были отобраны выражения, описывающие человеческие качества, и проведен сравнительный анализ их различных переводов. В процессе анализа на основе различных теорий перевода, включая динамическую эквивалентность и подходы культурной адаптации, подчеркивалась важность сохранения духовного содержания, эмоционального воздействия и культурного контекста выражений.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, "Минувшие дни", выражения, описывающие характер человека, перевод на английский язык, динамическая эквивалентность, культурная адаптация, фразеология, сравнительный анализ.

PHRASES EXPRESSING QUALITIES AND STATES OF HUMAN CHARACTER IN UZBEK AND THEIR TRANSLATION INTO ENGLISH

Annotation

This article focuses on studying the meaning of expressions reflecting human character and condition in the Uzbek language, the challenges of translating them into English, and addressing these challenges using scientifically grounded methods. Expressions describing human traits from Abdulla Qodiriy's "O'tkan Kunlar" ("Bygone Days") were selected and subjected to a comparative analysis of their various translations. During the analysis, different translation theories, including dynamic equivalence and cultural adaptation approaches, highlighted the importance of preserving the spiritual essence, emotional impact, and cultural context of the expressions.

Key words: Abdulla Qodiriy, "O'tkan Kunlar", expressions reflecting human character, English translation, dynamic equivalence, cultural adaptation, phraseology, comparative analysis.

Kirish. O'zbek tilidagi inson xakteri va holatini ifodalovchi iboralar boy ma'naviy va madaniy merosimizning bir qismi hisoblanadi. Ushbu iboralar xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ularni ingliz tiliga tarjima qilish jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy tafovutlarni ham hisobga olishni talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – inson xarakterini ifodalovchi iboralarning tarjima jarayonini o'rganish, tarjimada yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish va ularga ilmiy asoslangan yechimlar taklif etishdir.

Ilmiy tadqiqotlarda inson xislatlarini ifoda etuvchi iboralar va ularning tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan ham o'rganiladi. Quyida ushbu mavzudagi asosiy adabiyotlar va ularda yoritilgan g'oyalar haqida to'liq sharh keltiriladi. M. Yoldoshev o'z asarida o'zbek tilining frazeologik boyligini tadqiq qiladi. U inson xislatlarini ifoda etuvchi iboralarni bir necha guruhlarga ajratadi. Fazilatlarini ifodalovchi iboralar

masalan, "halol odam", "ko'ngli toza", hamda salbiy xislatlarni ko'rsatuvchi iboralar, masalan, "jizzaki", "dangasa". Asarning ahamiyati shundaki, u frazeologik birliklarning semantik tuzilishi va ularning madaniy asoslarini tahlil qiladi. Bu, tarjimada madaniy kontekstni hisobga olishda asos bo'ladi. E. Nidaning asari tarjima nazariyasining asoslarini beradi. U frazeologik birliklarni tarjima qilishda ikki yondashuvni taklif qiladi. 1. So'zma-so'z tarjima qilish, ya'ni iborining leksik ma'nosini saqlab qolish. 2. Dinamik ekvivalentlik, ya'ni iboraning ma'naviy va hissiy ta'sirini saqlashga urg'u berish. E. Nidaning ishi madaniy kontekst va tillararo farqlarni hal etishda muhim. P. Nyumark tarjimada ikki asosiy yondashuvni taklif qiladi. 1. Semantik yondashuv, ya'ni matnning semantik tuzilishini ilmiy aniqlik bilan saqlash. 2. Kommunikativ yondashuv, ya'ni tarjima qilingan matn o'quvchiga mos va tushunarli bo'lishini ta'minlash. Iboralarning semantik tuzilishini chuqurroq tahlil qilish zarurati Nyumarkning asosiy hissasi bo'lib, bu inson

xislatlarini tarjima qilishda qo'llanilishi mumkin. Ushbu adabiyotlar inson xarakterini ifoda etuvchi iboralarning mazmun va shakl jihatlarini tadqiq etish, ularni boshqa tillarga tarjima qilishdagi asosiy nazariy va amaliy muammolarni yoritadi. Bunda frazeologik birliklarning madaniy va leksik xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilidagi inson xarakteridagi sifat va holatni bildiruvchi iboralarni ingliz tiliga tarjimasini o'rganishda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini tanlandi. Bu asarda inson xarakteridagi sifat va holatni bildiruvchi iboralardan yaxshi foydalanilgan. Quyidagi jadvalda "O'tkan kunlar" asaridan asosiy iboralar tanlangan hamda ularning takrorlanish chastotasi keltirilgan.

1-jadval

Ibora	Kategoriya	Takrorlanish soni	Tarjima
"Ko'ngli ochiq"	Ijobiy fazilat	25	Open-hearted
"Yuragi tog'dek"	Tasviriy ibora	18	As brave as a mountain
"Qo'li ochiq"	Ijobiy fazilat	15	Generous
"Halol odam"	Ijobiy fazilat	20	Honest person
"Tili asal, yuragi zaxar"	Salbiy xislat	10	Sweet-tongued but with a bitter heart
"Jizzaki"	Salbiy xislat	8	Short-tempered
"Dang'asa"	Salbiy xislat	5	Lazy

"Otabekning halolligi va vijdonligi" kabi iboralar insonning ijobiy fazilatlarini tasvirlaydi. "Ko'ngli toza" iborasi yuksak axloqiy meyorlarni aks ettiradi. "O'tkan kunlar" tarjima qilinarkan, iboralarning ma'naviy ta'sirini saqlab qolish muhim. Bu asar, adabiy matnlarda inson xarakteri va iboralarni tarjima qilishdagi murakkabliklarni tushunish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

O'zbek tilidagi inson xarakterini aks ettiruvchi iboralarni tarjima qilishda asosiy muammolar madaniy va semantik farqlarda namoyon bo'ladi. Ilmiy asoslangan usullar, jumladan, dinamik ekvivalentlik va madaniy adaptatsiya, ushbu muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi. Tarjima jarayonida inson xarakterini ifodalovchi o'zbekcha iboralarni boshqa tilga tarjima qilishda bir qator muammolar paydo bo'ladi.

1. Madaniy kontekstning yo'qolishi. O'zbekcha iboralar ko'pincha xalqning milliy urf-odatlarini, turmush tarzi va madaniyati bilan bog'liq. Masalan, "Ko'ngli toza" → To'g'ridan-to'g'ri "pure-hearted" yoki "clean-hearted" deb tarjima qilinsa, iboraning chuqur ma'naviy mazmuni yo'qoladi.

2. Semantik farqlar. Bir tilda ma'naviy aniqlik beruvchi ibora boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri o'xshash tarjimaga ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, "Yuragi tog'dek" → Bevosita "heart like a mountain" deb tarjima qilinsa, ingliz o'quvchisi uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

3. Grammatik strukturalar farqi. O'zbek tilida frazeologik iboralar ko'pincha metaforalar orqali ifodalanadi, ingliz tilida esa ularning leksik tartibi qayta qurilishni talab qiladi. Masalan, "Qo'li ochiq odam" → Ingliz tilida a generous person kabi qayta ishlanadi.

Quyida ilmiy asoslangan tarjima usullarini keltiramiz.

1. So'zma-so'z tarjima. Bu usul semantik aniqlikni ta'minlaydi, ammo iboraning madaniy ta'siri saqlanmaydi: "Mard odam" → A brave person.

2. Dinamik ekvivalentlik: Bu usulda iboraning madaniy ta'siri va hissiy mazmuni saqlanadi: "Yuragi tog'dek" → A person with immense courage and strength.

3. Madaniy adaptatsiya: Ushbu usulda iboraning ma'naviy mazmuni oluvchi til madaniyatiga moslashtiriladi: "Ko'ngli toza" → A person with a clean conscience.

4. Qayta interpretatsiya qilish: Mazmunni izohlash uchun qo'shimcha tushuntirishlar qo'shiladi: "Iloni ham iniga kiritadigan odam" → A highly cunning and manipulative person.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari nafaqat milliy adabiyot, balki jahon adabiyotiga ham ko'plab ma'naviy va madaniy mazmunlar olib kirgan shohasardir. Unda inson xarakterini aks ettiruvchi iboralar muallifning psixologik mulohazalari, milliy madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning yorqin ifodasi sifatida ajralib turadi. Asarning asosiy tarjimalari Kerol Erl Jenkins ("Days Gone By"), Marta Briman ("Past Days") va Farhod Haydarov hamda Nuriddin Shukurov tomonidan amalga oshirilgan. Ularning har biri o'z uslubiga ko'ra farq qiladi, bu esa qiyosiy tahlil uchun qulaylik yaratadi. Quyida iboralarning tarjimalarini tahlil qilamiz.

"Ko'ngli ochiq" iborasi insonning mehribonligi, kengfe'lligi, halolligi va do'stona munosabatini ifodalaydi. U shu bilan birga, insonning ichki pokligiga ishora qiladi. Turli tarjimalarda "Ko'ngli ochiq" iborasining turlicha beriladi. Masalan, "Otabek was a sincere and kind-hearted man." (Kerol Erl Jenkins (Days Gone By) tarjimasi) tarjimada "Ko'ngli ochiq" iborasining umumiy ma'nosi tarjima qilingan, lekin "ochiqlik"ning keng ma'naviy mazmuni qisman yo'qolgan, iboraning metaforasi saqlanmagan, madaniy ta'sir cheklangan. "Otabek was open-hearted and generous." (Marta Briman (Past Days) tarjimasi) tarjimada "Ko'ngli ochiq" iborasining umumiy ma'nosi va kenglik hissi to'liq yetkazilgan, ibora hissiy jihatdan kuchli va ta'sirchan, iboraning o'zbekcha ma'naviy mazmuni saqlangan. "Otabek was honest, open-hearted, and caring." (Farhod Haydarov va Nuriddin Shukurov tarjimasi (O'tkan Kunlar)) tarjimada "Ko'ngli ochiq" iborasining har bir semantik qirasi to'liq aks ettirilgan, hissiy va ma'naviy ta'siri yuqori darajada saqlangan, iboraning o'zbekcha madaniy va psixologik ta'siri muvaffaqiyatli o'tkazilgan. "Ko'ngli ochiq" va "Yuragi tog'dek" iboralarining turli tarjimalari qiyosiy jadvalini hamda tahlilini keltiramiz:

2-jadval

Ibora	Tarjima 1 (Kerol Erl Jenkins)	Tarjima 2 (Marta Briman)	Tarjima 3 (Haydarov va Shukurov)
"Ko'ngli ochiq"	"Kind-hearted and sincere"	"Open-hearted and generous"	"Honest, open-hearted, and caring"
Tahlil	Ma'no qisman saqlangan, hissiy ta'sir yo'qolgan	Mazmun va madaniy kontekst saqlangan	Mazmun to'liq saqlangan, hissiy ta'sir yuqori
"Yuragi tog'dek"	"Brave and strong-hearted"	"As vast and patient as a mountain"	"As big as a mountain"
Tahlil	Metafora yo'qolgan, umumiy ma'no berilgan	Metafora saqlangan, madaniy mazmun yuqori	Metafora va ma'no muvaffaqiyatli berilgan

Ayrim tarjimalarda iboralarning milliy madaniyatga xos xususiyatlari to'liq saqlanmagan. Masalan, "Ko'ngli ochiq" iborasi ayrim holatlarda faqat "kind-hearted" deb soddalashtirilgan, bu esa iboraning keng ma'naviy mazmunini yo'qotgan. Ba'zi tarjimalarda metaforalar yo

soddalashtirilgan, yoki umuman olib tashlangan. Masalan, "Yuragi tog'dek" iborasi ayrim tarjimalarda "Brave and strong-hearted" deb berilgan, lekin bu original metaforaning vizual va hissiy ta'sirini yo'qotadi. O'zbek tilidagi iboralar ko'pincha kontekstga bog'liq bo'lib, ularni boshqa tillarda

mazmunli qilish uchun qayta ifodalash talab etiladi. Masalan, "Qo'li ochiq" iborasi "a generous person" deb qayta qurilgan. Umumiy olganda Kerol Erl Jenkins tarjimasida iboralarning soddasi, lekin mazmunan to'g'ri tarjimasiga urg'u bergan. Biroq madaniy kontekst va metaforalar aks ettirilmagan. Marta Briman tarjimasida adabiy ta'sirni saqlagan holda, iboralarning metaforalarini ham ko'proq yetkazgan. Farhod

Haydarov va Nuriddin Shukurov tarjimasida madaniy kontekst, metafora va ma'noni saqlashga eng muvaffaqiyatli tarjima qilingan.

Bundan tashqari Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida inson xarakterini ko'rsatuvchi ko'plab boshqa iboralar keltirilgan:

3-jadval

O'zbekcha ibora	Inglizcha tarjima
"Otabekning halolligi va vijdoniligi"	"Otabek's honesty and conscientiousness"
"Ko'ngli toza inson edi"	"He was a person with a pure heart."
"Yusufbek hoji mard va adolatparvar edi"	"Yusufbek hoji was brave and justice-seeking."
"Kumushning mehribonligi va sabri"	"Kumush's kindness and patience were remarkable."

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, har bir iboraning semantikasi va madaniy ta'siri tarjima jarayonida qayta ishlanishi kerak. Tarjima inson xarakterini ifodalovchi iboralarni boshqa tilga o'tkazish orqali madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi. Bu jarayonda madaniy kontekstni tushunish, iboraning hissiy ta'sirini saqlash va uni qayta ifodalash muhimdir.

Xulosa. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, inson xarakterini aks ettiruvchi o'zbekcha iboralarning ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida asosiy muammolar madaniy va semantik farqlarda namoyon bo'ladi. "Ko'ngli ochiq", "Yuragi tog'dek", "Qo'li ochiq" kabi iboralarning mazmunini to'g'ri tarjima qilish uchun dinamik ekvivalentlik, madaniy adaptatsiya va qayta interpretatsiya qilish kabi usullardan

foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida keltirilgan iboralarni turli tarjimonlar, jumladan, Kerol Erl Jenkins, Marta Briman va Farhod Haydarov hamda Nuriddin Shukurov tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu tahlildan ma'lum bo'ldiki, Farhod Haydarov va Nuriddin Shukurovning tarjimasida iboralarning semantik mazmuni, madaniy konteksti va hissiy ta'sirini to'liq saqlaganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot xulosasida tarjima jarayonida iboralarning mazmunini, madaniy ahamiyatini va hissiy ta'sirini saqlab qolishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan usullarni qo'llash zarurligi ta'kidlandi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Абдулла Қодирий, "Ўткан кунлар". Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 1969.
2. Nida, E. A. "The Theory and Practice of Translation". Leiden: Brill, 1964.
3. Newmark, P. "Approaches to Translation". Oxford: Pergamon Press, 1981.
4. Hofstede, G. "Culture and Organizations: Software of the Mind". New York: McGraw-Hill, 1997.
5. Бархударов, Л. С. "Таржима назарияси ва тиллар орасидаги муносабатлар". Москва: Высшая школа, 1975.
6. Larson, M. L. "Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence". Lanham: University Press of America, 1984.
7. Хайдаров Ф., Шукуров Н. "Ўткан кунлар"нинг икки тилли нашри (Ўзбекча-Инглизча). Тошкент: Янги Авлод нашриёти, 2015.
8. Каримова, Г. "Маданиятлараро мулоқотда фразеологиянинг таржимадаги ўрни". Тошкент: Академнашр, 2019.